

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

**MUSIQA, BADIY GRAFIKA VA MEHNAT TA'LIMI
FAKULTETI**

**MUSIQA O'QITISH METODIKASI VA XALQ CHOLG'U
ASBOBLARI KAFEDRASI**

MUSIQA O'QITISHNING NAZARIYASI VA METODIKASI

fanidan

KURS ISHI

BAJARUVCHI: 3 – 07 guruh talabasi Malikova Shoxsanam

QABUL QILUVCHI: dotsent I. QUDRATOV

Samarqand – 2012 yil

3 – 07 guruh talabasi Malikova Shoxsanam

Mavzu: « Boshlang'ich sinf musiqa darslari jarayonida axloqiy madaniyatni shakllantirish»

R e j a:

K i r i s h

1-§. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni ma'naviy – axloqiy dunyoqarashini shakllantirish yo'llari

2-§. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy va ma'naviy madaniyatini shakllantirishda musiqa tarbiyasining tutgan o'rni

3-§. Boshlang'ich sinf musiqa darslarida o'quvchi yoshlarni odob va axloqiy sifatlarini shakllantirishning forma va mazmuni

4-§. Musiqiy mashg'ulotlar orqali yosh avlodning axloqiy tarbiyasiga oid repertuarlarni tanlash

X u l o s a

Fodalanilgan adabiyotlar

Kirish

O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda barcha sohalarda siyosiy – iqtisodiy o'zgarishlar bo'lgani kabi halq ta'limi sohasida ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. «Ta'lim to'g'risidagi» qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ni ro'yobga chiqarish sifat ko'rsatgichi bosqichiga kirdi. Davlat ta'lim standarti , o'quv dasturi, yangi avlod darsliklarini yaratilishi hamda madaniy rivojlanishni yuqori bosqichlarga ko'tarish , jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin olishga yo'naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Musiq o'qituvchisi nafaqat o'quvchi yoshlarga musiqa va qo'shiq o'rgatuvchi muallim, balki yosh qablarni musiqa olamiga yetaklovchi, go'zallikka undovchi, hissiyot olamini boyituvchi, estetik didini yuksaltiruvchi, ma'naviyatiga katta mazmun baxsh etuvchi mohir ustoz va murabbiydir.

Ma'lumki, "Ta'lim to'g'risidagi qonun va milliy dastur" talablarida ham, yoshlarni tarbiyalashda milliy qadriyatlardan keng foydalanish, milliy mafkurani yoshlarda shakllantirish ma'naviy va ma'rifiy sohadagi ishlarni takomillashtirish, uzluksiz ta'lim muammolarini hal etish masalalari alohida e'tiborga ega.

Mavzumizning dolzarbligi - O'rta maktab boshlang'ich sinf musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirishda, avvalambor o'qituvchi o'z oldiga bir qancha vazifalar qo'yadi. O'rta maktab sinf o'quvchilarni axloqiy sifatlarini shakllantirish, bu – barkamol avlodni ma'naviy dunyoqarashni oshirish va kamol toptirish hozirgi vaqtning eng dolzarb masalasi bo'lib kelmoqda. Shu bilan birga Davlat ahamiyatiga ega bo'lganligi, ozod va obod Vatan barpo etishdek ulug' va olijanob maqsadga erishish uchun jasurlik va fidoyilik ro'hida tarbiyalash demakdir.

Ta'lim – tarbiya , san'at va axloqning birligi, shu qadriyatlarini baholash nazariyasiga, milliy o'zligini anglash orqali yuksak yo'lni bosib o'tgan ilg'or davlatlarning tajribasidan iboratdir, shu bilan birga o'quvchilarimizni raqobatbardosh mutaxassislar bo'lib yetishishlari uchun ma'naviy va axloqiy

sifatlarni shakllantirish eng asosiy dolzarb muammolardan biri ekanligi qayd etilgan.

Mavzuning maqsadi - O'rta maktab boshlang'ich sinf musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish. Maktabda musiqa madaniyati darslari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarni axloqiy sifatlarini shakllantirishning nazariy asoslarini va amaliy yo'l – yo'riqlarini ishlab chiqish.

"Musiqqa tarbiyasi metodikasi" fanining hozirgi maqsadi ham o'quvchilarning bilim doirasini kengaytirish, barcha fanlardan olgan bilim va malakalarini amalda qo'llash uslublarini o'rganish, musiqa mashg'ulotlarga ijodiy yondoshish o'quvchilarning diqqat – e'tiborini jalb qilish, shuningdek, texnika vositalari va ko'rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini, musiqa o'qitish uslublarini puxta o'rganishga va o'quv jarayonida qo'llashga qaratilgan.

1. O'rta maktab boshlang'ich sinf musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish va albatta, musiqiy ijro sifatlarini shakllantirish, ansambl shaklida ishtirok etish, sinf o'quvchilarni axloqiy sifatlarini shakllantirishda musiqa darslarining imkoniyatlarini aniqlash.

2. Musiqa darslarida o'quvchilar tomonidan musiqani emosional– hissiy qabul qilishini pedagogik – psixologik tahlil qilish.

3. O'rta maktab boshlang'ich sinf musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish uslubining rivojlanish sifatlarini oshirish jarayonida ularda ma'naviyatni shakllantirishning faol shakllarini aniqlash.

4. Respublikamizda hozirgi vaqtda musiqa darslarini va axloqiy madaniyatni dars jarayonida va to'garaklarni tashkil qilinishining holatini aniqlash.

5. Musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarda axloqiy sifatlarini hamda ma'naviyatni shakllantirish va takomillashtirish bo'yicha ilmiy – amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinf musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni axloqiy sifatlarini shakllantirish jarayoni. Dars o'tish jarayonida albatta, o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarga odob – axloq to'g'risida so'hatlar ham o'tkazib turishi lozim.

O'rta maktab o'quvchilarda axloqiy madaniyatni shakllantirishda musiqa fanlarini o'rganish bo'yicha ta'lim – tarbiya jarayoni hisoblanadi.

Mavzuning uslubiy ko'rsatmalari - O'rta maktab boshlang'ich sinf musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirishda, o'qituvchilar quyidagi optimal uslublardan foydalanishni taqozo etadi;

1. Boshlag'ich sinf o'quvchilarni axloqiy sifatlarini shakllantirish maqsadida har bir musiqa asarlarini o'qituvchini o'zi chuqur tahlil qilgan holda o'quvchilarga o'rgatish;

2. Har bir musiqa madaniyati darslarini asosiy maqsadining aniqligini ta'minlash;

3. Musiqa madaniyati darslarida ta'lim va tarbiyaviy vositalarning chambarchasligi;

4. Har bir tarbiyaviy maqsad va vazifaning izchilligi;

5. Musiqa darslarining har bir bo'limi uchun mazkur musiqa asariga ta'luqli o'quv materiallarini to'g'ri tanlash;

6. Musiqa darslarida o'quvchilarning axloqiy madaniyatini tarbiyalashda uning samarali natija beradigan uslublarni tanlash;

7. Har bir musiqa asarining o'quvchilarda emosional hissiy qabul qilish jarayonida individual xususiyatlarni hisobga olish;

8. Musiqa darslarini tashkiliy qismini aniqligi;

9. Boshlang'ich sinf musiqa darslarida o'quvchilarni individual va jamoa bilan ish olib borishni to'g'ri yo'lga qo'yish;

10. Har bir o'quvchining individual holatini yaxshi bilish;

11. Olib boriladigan axloqiy tarbiyaviy ishlarning uslublarini turlicha bo'lishi, mazmundorligi, emosionalligi va teranligini aniqlash;

12. Musiqa darslarining tashkiliy qismiga alohida e'tibor berish; (xonaga kirish, chiqish, joy – joyiga o'tirish)

13. Musiqa darslariga oid jihozlar bilan ta'minlanganlik darajasi; (musiqa asboblari, ko'rgazmali vositalar, darsliklar, texnik vositalar, audio, video tasmlar, DVD, VCD, CD, Mp 3. Mp 4 disklar) va hokazolar.

Mavzuning ilmiy yangiligini ochib berishda - Pedagogika fanlari nomzidi Ibodullo Razzoqovning "Umumta'lim maktablari 4–7 sinf musiqa darslarida o'quvchilarni axloqiy sifatlarini shakllantirish" bo'yicha dissertasiyasidan foydalanish, ko'p jihatdan foyda berdi. Unda o'quvchilarning axloqiy sifatlarini oshirish bo'yicha bir qancha ilmiy maqolalar ko'rsatmalar va uslubiy ko'llanmalar yaratilib, musiqa darslarini o'quvchilarni axloqiy sifatini shakllantirishning yo'l – yo'riqlari belgilab berilgan.

Hozirgi davrda boshlang'ich sinf musiqa darslarida o'quvchilarni axloqiy sifatlarini shakllantirish ularning ma'naviy dunyosini boyitish siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan jarayon bo'lib, bu borada qilinishi kerak bo'lgan bir qancha muammolar mavjud.

O'quvchilarning axloqiy sifatlarini oshirish ishlari o'quvchilarning aynan shu davrida (9–10 yoshlaridan 14–16 yoshli) hayotga bo'lgan munosobatlari shakllanayotgan, dunyoqarashlari o'zgarayotgan, atrof muhitga, odamlarga bo'lgan munosobatlari shakllanayotgan bo'ladi, shuning uchun ham ushbu davrda musiqa o'qituvchilardan katta mas'uliyat talab qilinadi.

Ayniqsa musiqa darslari o'quvchilarning axloqiy sifatlarini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa sinf o'quvchilarni axloqiy sifatlarini shakllantirish imkoniyatlarini oshiradikim, yoshlikda olgan to'g'ri tarbiya insonning bir umrlik yo'ldoshi bo'lishi mumkin.

1-§. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni ma'naviy – axloqiy dunyoqarashini shakllantirish yo'llari

Xalq ta'limi tizimidagi, musiqa talim – tarbiyasining mazmunii qayta tiklash jarayonida milliy musiqamiz tarixini, madaniy merosimizni, boy an'analarimizni har tomonlama o'rganib yosh avlodni ma'naviy, estetik va axloqiy fazilatlarini tarbiyalab shakllantirish, vazifasini musiqa – o'qituvchisi zimmasiga yuklaydi.

Ushbu ma'naviy – axloqiy tarbiyaning mazkur shaklida o'quvchilarning dunyoqarashini tekshirish qiziqishi, musiqiy asarlarni qabul qilishi, qahramonlarning obrazlarining ijobiy salbiy tomonlarini tahlil qilish kabi xususiyatlarni oshirib, ijobiy fazilatlarini shakllantiradi. Hozirgi davr talabidan kelib chiqqan holda, musiqa rahbarining yangi musiqa mashg'ulotlari mazmunini milliy musiqa merosi ustivorligida qayta ishlab chiqqan holda ijodiy yondoshib, yangi dastur asosida mashg'ulotni o'tishi lozimdir.

Musiqa darslari muayyan mavzu asosida o'tiladi. Musiqa mashg'ulotlarida o'quvchilarni ma'naviy – axloqiy hissiy yo'larini, fazilatlarini tarkib toptirish asosiy maqsad qilib qo'yilishi lozim.

"Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi" fanining hozirgi maqsadi ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim doirasini kengaytirish, barcha fanlardan olgan bilim va malakalarini amalda qo'llash uslublarini o'rganish, musiqa mashg'ulotlarga ijodiy yondoshish o'quvchilarning diqqat – e'tiborini jalb qilish, shuningdek, texnika vositalari va ko'rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini, musiqa o'qitish uslublarini puxta o'rganishga va o'quv jarayonida qo'llashga qaratilgan.

Musiqa tarbiyasi badiiy estetik tarbiyaning eng asosiy va ancha murakkab muammolaridan biri bo'lib, bolalarning musiqa san'ati asarlarini tushunishga, ijro etishga o'rgatish ishlarini kichik yoshdan boshlashni taqozo etadi. Jumladan, musiqay mashg'ulotlar musiqa tarbiyasi tizimida yetakchi omil hisoblanadi. Musiqa mashg'ulotlarini badiiyligi, bolalarda ijodiy zavq, hissiy tuyg'ular, obrazli kechinmalar uyg'otish bilan birga spesifik xususiyatlari bilan farq qiladi.

Har bir mashg'ulot o'zining tuzilishi va mazmuni bilan ilmiy asosda tashkil topishi lozim. Musiqa haqidagi bilimlar doirasi musiqa ta'limi va tarbiyasida asosiy omildir.

Musiqiy mashg'ulotlar jarayonida o'quv materialining boshlang'ich sinf o'quvchilarni bilim va tajribasiga mosligi, ularni ovozinig rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish, nota qonuniyatlarini to'g'ri o'rgatish, asarlarni bolalarning fikriy qobiliyatiga mos tahlil etish va boshqalar, mashg'ulotlarning ilmiylik prinsiplarini tashkil etadi.

Kuylash uchun asarlarni bolalar bilimi va malakalari, ovoz va kuylash malakalari darajasiga xos tanlash hamda ularni soddadan murakkabga va ma'lumdan noma'lumga qarab o'zlashtirib borish prinsiplari asosida tartibga solish – sistemalilik demakdir.

Musiqa idroki kishining hayotiy tajribasini boyitadi, real voqyelikni badiiy his etib, bilish qobiliyatini o'stiradi, fikrlash xususiyatini rivojlantiradi. Ammo mazkur malaka va ko'nikmaning shakllanishi bola ongining uzoq rivojlanishi prosessini talab etadi. Chunki kichik raqs pyesasini idrok etishga ko'nikkan bola birdan simfoniya asarini idrok eta olmaydi.

Demak, bolaning musiqa idroki qobiliyatini bu darajaga yetishi uchun musiqa asarini eshitib bilishga lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni ongli ravishda aktiv o'zlashtirishi lozim. Ammo bu o'z o'zidan vujudga kelmaydi. Bu uchun musiqa tarbiyasida sistemalilik va davomiylik prinsipini qo'llagan holda bolaning o'quv materialini ongli bilib o'zlashtirishi, bilish jarayonining aktivligini vujudga keltirish lozim.

Ma'lum musiqa asarini kuylab yoki tinglab o'zlashtirish va undan badiiy – estetik zavqlanib, g'oyaviy boyish uchun mazkur asarni idrok etishga bolaning, eng avvalo, diqqat e'tiborini jalb eta bilish va unda qiziqish o'yg'ota bilish shart. Aks holda onglilik va aktivlik vujudga kelmaydi.

Ammo musiqa esa bunday imkoniyatdan istisnodir. Musiqa darslarida o'quvchilar ijrosida musiqa tinglovchisi ham, kuylovchisi ham, ijrochisi ham kompozitor belgilagan tempga sozlanishi, shu tempda kuylashi yoki tinglashi shart.

Aks holda jaranglayotgan musiqa va tinglovchi o'rtasida o'zilish hosil bo'lib, idrok buziladi. Ana shuning uchun ham musiqa mashg'ulotlarida ayniqsa, onglilik va uning aktivligi nihoyatda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun osondan murakkabga va ma'lumdan noma'lumga o'tish prinsipi asosida bolalarning ongli musiqa idroki va aktivligini rivojlantirish yo'li bilangina ularning musiqa madaniyatini shakllantirish mumkin.

Har bir musiqa mashg'ulotida musiqa materialini ongli ravishda o'zlashtirishda ilmiylik muhim rol o'ynaydi, chunki u musiqa asarlarining nazariy asoslarini ifoda vositalarini bilib olishga asosiy mezon hisoblanadi.

Bu uchun o'qituvchining tushuntirish vositalarining maqsadga muvofiqligi, aniq va ravshanligi, bolalarning so'z fondi boyligiga mosligi, cholg'uda mashqlari, qo'shiqlar esa ularning ovozi va kuylash malakalariga mos tushishi shart.

Musiqa tarbiyasida musiqaning o'zi o'ziga ko'rgazmali vositadir. Chunki u ko'z bilan emas, balki quloq bilan idrok etiladi. Masalan, o'qituvchi musiqa mashg'ulotida mashq yoki qo'shiq ohangini chalib kuylab ko'rsatganida, ohang va so'z asosan quloq bilan "ko'rib" qabul etiladi. Musiqa tinglashda ham, asar tahlilida ham ohang ko'rgazma sifatida chalib ko'rsatiladi.

Maktab musiqa madaniyati mashg'ulotida musiqa rahbarini vazifasi, tanlangan asarning chalishdagi qo'l harakatlari, yuz ifodasi, doskaga ilingan qo'shiq plakati, mashq yozuvi ham ko'rgazmali vositadir, ammo u musiqa sadosi ko'rgazmaligiga yordamchi, ikkinchi darajali vositadir. Buni shu bilan isbotlash mumkinki, musiqani ko'r kishi idrok etadi, ammo u tasviriy san'atni idrok etolmaydi, tabiat go'zalligini ko'rolmaydi. U ularni musiqa tasvirida tasavvur qilishi mumkin.

Ammo boshlang'ich vaqtlarda asar syujetiga xos audio va video tasmlar, arning badiiy mazmunini konkret tasavvur etib idrok etilishiga yordam beradi. Mazkur prinsip asosan dasturdan mashg'ulot materiallarini va mazkur materiallar asosida mashg'ulot mazmunini tuzish jarayonida qo'llaniladi. Bunda har bir guruhning umumiy bilim va malaka darajasi hisobga olinishi shart.

Umuman olganda, mazkur didaktik prinsip barcha guruhlarda mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish jarayoni va uni maxsus jihozlangan xonalarda olib borish davrida keng qo'llanib boriladi.

Mazkur prinsipni amalga oshirishning eng asosiy sharti yuqorida bayon etilgan 4 ta prinsipga jiddiy amal qilishdan iboratdir. Bilim va malakalarning chuqurligi, mustahkamligi va turg'unligiga erishish uchun ularning hayotiylikini ta'min etish lozim, ya'ni mazkur asar va uning ijro uslublari madaniy hayotimiz uchun zarur ekanligi haqida bolalarda ishonch hosil etish lozim. Ikkinchidan, asarlar tanlashda quyidagilarga amal qilish lozim:

- a) asarning o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasi uchun mosligi.
- b) Musiqa talimi, ya'ni bilim berilishiga bo'lgan xususiyati.
- v) guruhdagi barcha qatnashuvchilarni mazkur asarga qiziqtirish va to'la o'zlashtirishga erishish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari musiqa mashg'ulotlarida olinadigan barcha bilimlar doirasi va malakalar kompleksi uchun musiqa mashg'uloti amaliyotidagi takrorlanish va qaytarish xususiyati muhim rol o'ynaydi. Shu bois musiqiy mashg'uloti boshqa mashg'ulotlardan farq qiladi va bu didaktikaning eng asosiy maqsadidir.

Bizga ma'lumki, musiqa madaniyati darslari o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, xususan, ritm – usul tuyg'usi va qo'shiq kuylash qobiliyatini rivojlantirish bilan birga, ularning jismoniy rivojlantirish uchun ham muhimdir. Boshlang'ich sinf musiqa darslari o'quvchilarning estetik va axloqiy tarbiyalashda ijobiy ta'sir etadi, ulardagi go'zallikka bo'lgan hissiyotlarini rivojlantirishga yordam beradi.

2-§. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy va ma'naviy madaniyatini shakllantirishda musiqa tarbiyasining tutgan o'rni

Respublikamizning madaniy taraqqiyoti bevosita uning ma'naviy – axloqiy negizlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov qayd qilganidek, bu negizlar: milliy qadriyatlarga sodiqlik, ma'naviy merosni qadrlash va rivojlantirish, insonni o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish vatanparvarlikdan iboratdir. Umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligi respublikamiz hududida asrlar osha yashab ijod etib kelayotgan barcha fuqarolarning ma'naviy madaniyatlarini shakllantirishga erishishdan iborat maqsadlar yotadi.

Mamlakatimiz rivojiga hissa qo'shadigan, kelajagimiz poydevori – yoshlarni har jihatdan komil inson, ma'naviy madaniy shakllangan barkamol shaxs qilib tarbiyalashda barcha fanlar qatori musiqa fanining ham o'rni benihoyadir. Bu jihatlarni tarkib toptirish ushun avvalo, ma'naviy madaniyatning asl mohiyatini tushunib yetmog'imiz lozim.

Aslini olganda, ma'naviyat va madaniyat bir – biriga yaqin tushunchalardir. Ammo ular bitta narsa emas, biri ikkinchisidan farq qiladi. Shuning bilan birga ular bir – birini to'ldirib turadilar.

Shunday ekan, ma'naviyat nima? Madaniyatchi? degan savollarga javob berishga harakat qilamiz.

Ma'naviyat atamasining o'zagini “ma'no”, “ma'ni” so'zlari tashkil etishi haqida bir qancha adabiyotlarda to'xtalib o'tilgan. Mutaxassislarning fikricha, “ma'naviyat” atamasi, bir tomonidan, arabcha “ma'ni” o'zagidan hosil bo'lgan.

Tilshunoslikka oid lug'atlarda ham “ma'naviyat”– axloqiylik, kishining ichki va ruhiy olami bilan bog'liq ma'nolarni anglatishi aytiladi.

Ma'naviy boyliklar siyosiy va huquqiy mafkura, falsafa, axloq, san'at ahli, musavvirlar, bastakorlar, shoir va yozuvchilar, nazariyotchilar, xullas, xalq ommasi tomonidan yaratiladi va ommalashadi. Ma'naviy boyliklar avloddan – avlodga, bir

tuzumdan ikkinchi tuzumga meros sifatida o'tadi va jamiyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi.

V.A.Suxamlinskiy aytganidek, xalq musiqa merosi bitmas – tuganmas hazina bo'lib, yoshlarni ma'naviy kamolotga yetqazuvchi badiiy – estetik manba hisoblanadi.

Musiqa qadim zamonlardan boshlab kuchli tarbiya vositasi sifatida ta'lim – tarbiyaning barcha tizimlarida keng qo'llanilgan. Ko'zga ko'ringan davlat arboblari, olimlar, pedagoglar san'atining barcha turlariga, jumladan musiqa san'atiga ham insonlarning ongi va ruhiyatiga chuqur ta'sir qilib, ularda yuksak ma'naviy madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish vositasi sifatida qarashganlar va bunga katta e'tibor berganlar.

Musiqa san'atining har bir janri shunday mavzular majmuini o'z ichiga oladiki, unda mamlakatning boshidan kechirgan u yoki bu davri xalqning yoki millatning ma'aviy ruhi hamda madaniyati ifodalanadi.

Musiqa san'ati mustaqil Respublikamiz fuqarolari ma'naviy dunyosini boyitish, ularni go'zal narsalarning hammasidan bahramand qilish kabi ijobiy xususiyatlarga ega. Ma'naviy g'oyasi yuksak, badiiy jozibali musiqa asarlari kishilar qalbiga tezroq yo'l topish, estetik hissiyotiga kuchli ta'sir qilish, hayotiy voqeya – hodisalarni chuqur mushohada qilishga da'vat etishi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Shuning uchun asarlarining kishilarni yuksak ma'naviy – madaniy ruhda tarbiyalashdagi badiiy ta'sir etishdek vositali xususiyatidan imkoni boricha kengroq foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Musiqa asarlarning kuchi uning xalqchil va tushunarligida, kishilar ichki – ruhiy dunyosiga emosional ta'sir ko'rsata olishidadir. Ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda musiqa san'atining ana shu xususiyatini hisobga olish muhimdir.

Ma'naviy tarbiyada o'zbek xalqining boy ma'naviy merosidan keng foydalanish uning ta'sirchanligi va samaradorligini oshirishda muhim omil bo'la oladi

Kundalik hayotimizda jamiyat madaniyatini vujudga keltirishda uning ma'naviy hayotida, davrimizga munosib har tomonlama barkamol badiiy didli, sog'lom fikrli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda musiqa san'atining o'rni ahamiyatli bo'lib qolmoqda.

Jumladan o'zbek musiqa madaniyatining poydevorini vujudga keltirishda mehnatkash xalq tomonidan yaratilgan kuy va qo'shiqlar kishi qalbini o'ziga rom qilib, asarlar o'sha xalq uchun ilhom manbai bo'lgan. Inson qalbi go'zallikka tashnalik sezish bilan bir vaqtda, go'zallik muhitidan ozuqa oladi.

Musiqa – san'atning ifodali turi tizimiga kiradi. Musiqa ham voqeya – hodisalarni ifodali ettiradi. Ammo u me'morchilikdagi kabi fazo va moddiy ashyo o'lchovlari bilan belgilanmaydi. Musiqa ko'rish orqali emas, balki eshitish vositasida idrok etiladi. Musiqa mavzui o'z xususiyatiga ega bo'lib, inson va voqyelikdai barcha tomonlarni qamrab ololmagani uchun, eng avvalo, inson ichki ma'naviy dunyosini, uning tuyg'u va kayfiyatini ifodalaydi, musiqa musavvirlik va haykaltaroshlikdan farqli tarzda dunyo haqida tasavvurlar emas, balki tuyg'ular va kayfiyatlar hosil qiladi. Musiqa voqyelikning his – tuyg'uli qiyofasini yaratadi.

Musiqada tuyg'ular hayotiy tuyg'ularning aynan o'zi bo'lmay, ular tanlab olingan, tasodifiy lahzalardan tozalangan, muayyan orzular nuqtai nazaridan anglangan bo'ladi. Musiqa inson hissiyotlari holatining barcha rango – rang tovlanishlarini aks ettirishga qodir. U eng murakkab tuyg'ular, eng nozik kechinmalar va kayfiyat holatlarini ham ifoda eta oladi.

Musiqa murakkab ijtimoiy tuyg'ularni, eng avvalo, hayotdagi nutq ohanglari yoki harakat vazinlari aks etadigan axloqiy (sevgi, nafrat, g'urur, qo'rquv), estetik (san'at yoki tabiat nafosati, ulug'vorlik, fojiali, kulguli) tuyg'ularni ifodalaydi.

Musiqa kayfiyat holatini ifodalashda keng imkoniyatlarga ega. Inson kayfiyati murakkab hissiyot bo'lib, u hech narsa bilan bog'lanmagan. Kayfiyat umumlashgan hususiyatlarga ega bo'lib, undan ikkilamchi tomonlar chiqarib tashlanadi va insonning voqyelikka bo'lgan tuyg'u munosabatini belgilaydigan eng muhim tomonlari ajratib olinadi.

Musiqaning kuch – qudrati shundaki, u shodlanish, qayg'urish, hayol surish, bardamlik, tushkunlik va shunga o'xshash inson ruhiy holatlarini hususiy va umumiy tarzda o'zaro bog'liqlikda, bir – biriga singib ketishida namoyish qila oladi.

Musiqa inson ichki dunyosining hissiyotli tomonlari bilan birga ma'naviy olamini butunligicha ifoda etib, uning aqliy va iroda qudratini, yaxlit qiyofasini yarata oladi. U ruhiy tizim hususiyatlarini ifodalash, milliy ruh holatlarini vujudga keltirish imkoniyatiga ham ega.

Musiqa madaniyatining yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutadi. Bunda o'quvchilar musiqa san'atini butun nafosati bilan o'rganishlari asosiy maqsad hisoblanadi. Shuningdek o'quvchilar musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqni oshirish, musiqa san'atiga qiziquvchi o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart – sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish musiqa ta'lim – tarbiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi.

Musiqa ta'lim – tarbiyasini rivojlantirish bo'yicha davlat ta'lim standartlari asosiy mezon bo'lib hisoblanadi.

Musiqa madaniyati darslari o'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham davlat ta'lim standartlarining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, honanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o'z aksini topdi.

Musiqqa san'atining bu kabi imkoniyatlarini yangi avlodni tarbiyalashda ularning barkamol bo'lib yetishtirishda o'ziga hos va takrorlanmas manba bo'lib hizmat qiladi.

Musiqiy san'at inson munosabatlari go'zalligini – fidoiylik, oliyjanoblik, ezgulik, yaxshilik, adolat, jasorat, vatanparvarlik kabi tushuncha shaklidagi holatlarni badiiy ifodalash orqali aks ettiradi.

Musiqqa san'atining beqiyos va o'lmas an'analarini o'zlarida mujassam qilib, ularni zamonaga mos tarzda rivojlantirish zabardast va ulkan qalb egalariga xosdir. Ularning ijodi, ijro yo'llari va talqin uslublarini o'rganish, musiqaning cheksiz sir sinoatlaridan voqif bo'lish, madaniy boyligimizni qadrlash bilan birga yosh avlodni ona – Vatanga muhabbat, sadoqat ruhida tarbiyalashda ham keng imkoniyatlarni ochib beradi. Musiqiy san'atning yana bir eng asosiy muhim tomonlaridan yana biri ko'ngilda ezgu his – tuyg'ularni kamol toptirib, insonni hayotni sevishga, ardoqlashga undashidir. Shu boisdan sozandalar, xonandalar azal – azaldan ma'naviyat kuchlari sifatida e'zozlanib kelingan.

Ayni mahalda san'at ijtimoiy yovuzliklarni, razillik va munofiqlik, pastkashlik va riyo, tubanlik va yolg'onchilik kabi hunuk hodisalar vositasida ham insonning tuyg'ulariga ta'sir etib uni tarbiyalaydi. San'atda go'zallik, ko'pincha fojia, ulug'vorlik kulgi orqali qaror topadi. Fojiiyaviylik, ulug'vorlik va kulgilik tushunchalari san'atda alohida qimmatga ega. Bizga ma'lumki, u yoki bu musiqqa asarini ijro etishda ijrochilar va cholg'uchilardan mohirlik va ustalik talab qilinadi.

3-§. Boshlang'ich sinf musiqa darslarida o'quvchi yoshlarni odob va axloqiy sifatlarini shakllantirishning forma va mazmuni

Ma'lumki axloqiy tarbiya ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan xatti – harakatlar yig'indisidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarni axloqiy sifatlarini shakllantirish to'g'risida so'z borar ekan, avvalo biz axloq haqida keng to'shinchaga ega bo'lishimiz lozim. Axloq nima? U insonda qanday ko'rinishda bo'ladi? Axloqiy sifatlarini insondagi qanday kriteriyalarda aniqlaymiz?

Axloq (lotincha mores – odat) – jamiyatdagi kishilar xulq atvorini boshqarib turish vazifasini bajaruvchi tartib qoidadir. Mustaqil Respublikamizda axloq – bu talab normalari ifoda etilgan, hamda kishinig jamiyat va boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatini aks ettiruvchi qadriyatlardan iborat bo'lgan jamiyat va insonning xulq –atvoriga, ma'naviy hayot hodisalariga baho beradi. Axloq tushunchasiga kishilarning axloq talablariga munosabatlari, ya'ni axloqiy qarashlar tasavvurlar, axloqiy his – tuyg'ular va sifatlar kiradi. Nihoyat, axloqni belgilashda insoniy munosabatlar ulkan sohasi – axloq talablarining amalga oshirishi bilan bevosita yoki bilvosita bog'lik bo'lgan faoliyat natijasida vujudga keltiriladigan axloqiy munosabatlar majmuasidir.

Odob odamning jamoat el – yurt orasida o'zini tutishi. boshqalar bilan qay usulda muomila qilishi, o'z turmushi va bo'sh vaqtlarini qanday tashkil etishi, xullas, shaxsning kundalik xulq – atvor, yurish – turishi xatti – harakati qanday bo'lishi lozim va ma'qul ekanligi xususida bahs etadi. Aniqrog'i axloq kishining ichki axloqi, e'tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo'lsa odob shaxsning ko'zga tashlanadigan mulozimati, xulq – atvori, muomila munosabatlari tarzida namoyon bo'ladi.

Adolat – axloqiy ong tushunchasi bo'lib, u narsalarning shunday holatini ifodalaydiki, bu holat talab etilgan inson huquqlarini ma'lum darajaga tushunish, u bir necha hodisalar nisbatini kishilar orasida yaxshilik va yomonlik qanday

taqsimlanishini nuqtai nazardan xarakterlab beradi. Xususan adolat qilmish va uning jazosi o'rtasidagi kichiklarning qadr qimmatini va uning taqdirlash, ularning huquqlari va burchlari o'rtasidagi nisbatni o'z ichiga oladi.

Aql – idrok qudrati tufayli yuzaga keladigan hamma sohadagi bilim, tajriba, kashfiyot inson kamolotiga va jamiyat taraqqiyoti, undagi barcha munosabatlar insoniy tus olishga xizmat qilishi kerak edi. Ammo ba'zan inson faoliyatining natijalari uning o'ziga qarshi turibdi. chunonchi, pichoq oshpaz qo'lida taom tayyorlash vositasi, ma'naviy tuban odam ixtiyorida u qotillik vositasiga aylandi. Zahar bemorni davolashi yoki odamni o'ldirishga xizmat qilishi mumkin. Atom parchalanishining ixtiro qilinishi natijasida texnika va texnologiyada, ishlab chiqarish va jamiyatni boshqarishda misli ko'rilmagan yangi imkoniyatlar vujudga keldi. Ayni chog'da olimlar ixtirosi bo'lgan atom energiyasi siyosatchilar va harbiylar ixtiyoriga o'tib ketgach, odamzodning o'zini tur sifatida saqlanib qolishi xavfi paydo qildi.

Nomus – axloqiy sifatlardan biri bo'lib, kishining o'ziga bo'lgan munosabatini, qadr – qimmatini, jamiyatdagi kishilar oldidagi vijdoniy burchidir. Nomus bilan vijdon bir – birini mustahkamlaydigan sifatlardan biri bo'lib, jamiyatdagi mutanosiblikni saqlaydigan kategoriyadir. Nomussiz kishilar jamiyat uchun ham, vatan uchun ham, kishilar uchun ham xavli insonlar hisoblanadilar.

Qadr – qimmat – har qanday insonning kishilar olidida shaxs sifatidagi qimmatini haqida tasavvurni ifoda etuvchi axloqiy sifatlardan biri bo'lib, bir tomondan, inson o'z qadrini anglashi shaxsning o'zligini anglashi va o'z – o'zini nazorat qilish formasi bo'lib, inson o'ziga bo'lgan talabchanligi mana shunga tayanadi hamda o'z qadrini bilish va qo'llab quvvatlash hamda o'z mas'uliyatini idrok etish kabi sifatlarni o'z ichiga oladi. Qadr – qimmat inson shaxsining axloqiy qimmatini, ahamiyatliligini bildirib, o'z – o'zini hurmat qilish, shaxs sifatida o'z qadrini anglashdir,

Burch – axloqiy sifatlardan asosiysi bo'lib, insonni jamiyat va vatan va kishilar oldidagi vazifasini belgilaydigan bo'limlaridan biridir. Burch kategoriyasi shaxsning mas'uliyat, o'z – o'zini anglash, vijdon, sabab singari axloqiy fazilatlar

bilan uzviy bog'liqdir. O'z burchini his qilgan inson doimo hurmatda va izzatda bo'ladi.

Vijdon – shaxsning o'z – o'zini ma'naviy nazorat qilish, o'zida mustaqil ravishda axloqiy burchni shakllantirish, shularni bajarishni o'zidan talab qilish va qilinayotgan hatti – harakatlariga va o'ziga – o'zi baho bera olish qobiliyatini ifoda etadi.

Mas'uliyat – axloqiy sifatlardan biri bo'lib, u shaxsni jamiyat tomonidan q'yilgan axloqiy talablarni bajarish nuqtaiy nazardan shaxsni axloqiy takomillashuvida muxim o'rin egallaydigan, ma'naviy talablarni idrok etish, o'zi turgan aniq vaziyatga shu talablarni tadbqiq qilish va amalda bajarishdan iborat bo'lsa, bu vazifaning qanday bajarilayotganini yoki uni bajarilmasligida o'zining aybini sezsa, bu shaxsning mas'uliyat masalasidir.

Vatan mehri – oliy qadriyatdir. O'z Vatani sevmagan, millatini qadriga yetmagan, o'zganing ham, bashariyatni ham kurrai zamin obodonligini ham qadriga yetmaydi. Bu ham – haqiqat. Demak, Vatanga sadoqat – haqiqatga sadoqatning, millatga mehr, ahli bashar mehrining ibtidosidir. Busiz na adolat g'alaba qiladi, na haqiqat yuzaga chiqadi, na insonning o'z shaxsiga e'htiromi shakllanadi, chunki Vatan mehrini yo'qotgan shaxs oyog'i ostidagi zaminni ham yo'qotadi, go'yo tayanchsiz muallaq qoladi.

Ziyoli – teran aql va hassos qalb egasi – ma'naviyat, ma'rifat va muhabbat yog'dularining sarchashm'alaridir. Ziyoli haqiqatni sevish, yoniq dil bilan tinimsiz unga talpinish, uning xayoli bilan yashamog'i lozim. Ziyoli bu – vrach pedagog, muxandis, muallim, tadqiqotchi, yer ilimining bilimdoni. Agar uning qalbiga Haq joy olmagan bo'lsa, haqiqatga mehr tovlanib turmasa, bemorga shifo ato eta olmaydi, murg'ak aqlga bilim ziyosini singdira olmaydi, odob bera olmaydi.

Ziyoli – ma'naviyatli insondir. Shu nuqtai nazardan har qanday kasb egasi, barcha toifa vakillari ziyo egasi bo'lishi mumkin. Hatto xat –savodi bor yu'qligi ham muhim emas. Ma'naviy kamolot yo'li hyech bir odam bolasiga, hyech bir toifa namoyondasiga qatog'on etilgan emas, shunday ekan, ma'naviyat ziyosi bilan qalbi nurlangan har bir insonni ziyoli deyish mumkinday ko'rinadi. Insonlarning

tabiati, ma'naviy qiyofasi va kasbi doim ham o'zaro muvofiq kelavermasligi mumkin. Ziyoli – olim, orif, ustoz muallimdir.

Haqiqat – avvalo, ma'naviyat insonni jamiki boshqa mavjudodlardan ajratib turuvchi mohiyat bo'lib, inson – tabiatning, barcha tirik mavjudodning gultoji, deyilganda uning ushbu xislati, ya'ni yuksak ma'naviyat egasi bo'la olish imkoni nazarda tutilgandir. Ma'naviyat inson qalbidagi ilohiy nur, oliy haqiqat nuri bo'lib, shu sababdan buyuk bobokonlarimiz inson qalbini "Haqiqat insonning ganjasi deb" ataganlar.

Muloqot madaniyati – insonning muomila quroli, til bo'lib, odamlar bir – biri bilan bo'ladigan barcha muomila va muloqotlarini so'zlashish yordamida amalga oshirish. Dono xalq so'zlash qoidasi, tilga ehtiyot bo'lish, har bir so'z, har bir jumlaning o'ylab gapirish. Har bir insonning ko'ngliga, dunyoqarashiga, munosabatga va psixik jarayoniga qarab muloqot qilish madaniyatidir.

So'zlash odobi – inson avvalo insoniyatini so'zlashish odobi bilan namoyish etadi. Buning uchun avvalo u quyidagi axloqiy elementlarga e'tibor berishi lozim:

- Avvalo bemavrit gapirmaslik;
- Lutf ila yumshoqlik bilan so'zlashish;
- « Ochiq chehra bilan gapirib, aftni, yuzni burishtirmaslik;
- Eshtuvchiga malol kelmaydigan ohangda so'zlash;
- Faqat foydali gaplarni gapirish;
- O'ylab, andisha bilan so'zlash, o'ylamay aytilgan gap pushaymon ketiradi;
- Ko'p gapirmaslik kerak, zero bu fozillar ishi emas;
- Kishilar manfaatiga zarar keltiradigan so'zlarni mutloqo gapirmaslik kerak.

Inson o'zini nimalardan tiyishi kerak? Insonga zarar keltiradigan barcha bemani qiliqlardan, odobsizlikdan va odamlar ko'nglini ranjitadigan barcha sifatlardan inson o'zini tiya bilishi kerak.

Ayniqsa:

- Yolg'on gapirish, zero yolg'onchilik dushmandir.

- Va'daga xilof ish qilishdan saqlanish, chunki bu ikki yuzlamachilik nishonasidir;
- G'ibayt va bo'htondan, sababi – bu fosiqlar ishidir;
- Janjaldan, xusumatdan, hasaddan, ig'vodan va har xil zino ishlardan.

Shafqat – chin insonni boshqalarga hech bir ozor yetkazmaydigan, takaburlik qilmaydigan, hech kimga haqorat ko'zi bilan qaramaydigan, yolg'on so'zlamaydigan, rostgo'y, o'zidan kattalarga hurmat, kichiklarga shafqatli va marhamatli, ochiq yuzli, shirin so'zli, xushmuomila bo'lish kabi axloqiy sifatlar, shafqatli kishi ig'vo, g'iybat, yaramas ishlardan, nojo'ya haraktlardan o'zini saqlaydigan, ota – onasiga, do'stlariga hurmatni bajo keltiradigan, o'zida go'zal hislatlarni mukammal tarbiyalaydigan inson bo'ladi.

Oqibat. Oqibatli kishi o'zining amaliga, boyligiga ishonib, aka – ukalarini, opa – singillarini, qarindosh urug'larini va do'stlarini esidan chiqarmaydigan insonlardir. Bunday odamlarning aqli farosatiga, axloqiy odobiga odamlar hamdu sanolar o'qib, doimo duo qiladilar. Inson hamma ishlarda kishilarga va hamyurtlariga yaxshilik qilmog'i lozim. Imkoniyati bo'lmagan taqdirda yaxshi niyat va so'z bilan, imkoniyati bo'lganda esa amaliy yordam bilan yaxshilik qilmog'i lozim. Agar kishi yaxshilik qilmoq qo'lidan kelmasa, yomonlik qilmasligi bundan ham yaxshi ishdir.

Nifoq – kishilarning oldida bir xil, orqasida boshqa xil so'zlaydigan kishilar toifasiga aytiladi. Bunday so'zlarni so'zlovchi ikki yuzlamachi kishilarni munofiq deyish mumkin. Ishi tushganda oldingizda izhori do'stlik va minnatdorlik qilib, orqangizdan sirru asrorlaringizni sizning dushmanlaringizda g'iybat va shikoyat qilib turuvchilar ham munofiq hisoblanadi

Tama – deb birovdan bir narsa umidvor bo'imoqqa aytiladi. Birovga ozmi – ko'pmi xizmat yevaziga minnat qilib, biror bir narsa umidvor bo'lgan kishilar ta'magir deyiladi. Tama balosiga giriftor bo'lgan kishilar, nonius va hayo degan yaxshi sifatlardan yiroq bo'ladi. Bular o'zining nafsini deb har qanday andeshasizlik va hurmasizlik qilishlari mumkin.

Himmat – bu muruvatlilik, oliyjanoblik, mardlik, tantilik, saxiylik, qo'li ochiqlik, saxovatlilik, ulug'vorlik. bag'ri kenglik. buyuklik, dangallik kabi tushunchalarni o'z ichga oladi.

Himmatli kishilar ayni chog'da olijanob, saxovatli va hotamtoylik sanalganlar, ularning maslahatlari, yo'l – yo'rig'i hamma uchun ma'qul va manzur sanalgan. Himmatli kishilar himmatliligi tufayli mislsiz qiynchiliklar, g'avg'olarni yenggan, muammolarni hal qilgan, hatto o'limdan saqlanib qolib, maqsadiga erishgan. Xalq nazdida himmatli kishilar mard va tanti hisoblanganlar, obro' – e'tiborlari baland, so'zi oltinga teng bo'lgan, nufuzi el orasida kuchli bo'lgan,

Do'st. Donolarning aytishicha, uch guruh kishilar bilan do'stlik yo'lini tutish maqsadga muvofiqdir. Do'st – ilm ahli bo'lib, ular o'z hayotlarini ilmu – odob bilan o'tkazadigan va hayotni barcha achchiq – chuchugini tortgan bo'ladilar. Do'st – baxtiyor tabiatli saodatman kishilar bo'lib, ular o'z do'stlarining ayblarini odamlardan yashiradilar va hyech qachon oshkor qilmaydilar. Xilvatda do'stlari sodir etgan xatolarini yuzlariga aytib, ulardan hyech bir nasihatlarni ayamaydilar.

Do'st – beg'araz va beta'ma kishilar bo'lib, ularning do'stliklari haqiqiy bo'ladi, do'stlikni biror foyda topish evaziga qilmaydilar.

Donolar aytishicha do'st uch xil bo'ladi.

Birinchisi – "**Jon do'st**" bo'lib, bunday do'st haqiqiy hisoblanadi. Ular o'z do'sti uchun jonini ham fido qiladilar.

Ikkinchi – "**Til do'st**" bo'lib, u rasman tilda do'stlik izhor qiladi, ammo boshga biror kulfat tushsa, o'zini ko'rsatmaydi.

Uchinchisi – "**Mol do'st**" bo'lib, bunday do'st yeb – ichish uchiningina do'st bo'ladi. Boshinga biror ish tushganda, mansabingdan tushganda va puling tugaganda qorasini ham ko'rsatmaydi.

Haqiqiy do'st mehnatda sinaladi. Ayniqsa, boshingga mushkul ish tushganda sen bilan hamkor bo'la olgan kishidir. Quyidagi xususiyatga ega bo'lgan insonlar bilan do'stlashish lozim:

- Do'st aqlli bo'lish kerak, zero aqlsizlik yaxshilik belgisi emas. Donolar: "Aqlsiz do'stdan aqlli dushman yaxshi" deganlar.
- Do'st xushfe'l bo'lishi lozim, chunki badqahrlar bilan til topishish qiyin.
- Do'st badfe'l bo'lmasligi lozim.
- U beg'araz bo'lmasligi darkor.
- Do'st aldoqchi, riyokor, qallob bo'lmasligi kerak, chunki bundaylarning do'stligiga ishonib bo'lmaydi.

Agar sen haqiqiy do'st topsang quyidagilarga amal qilishing shart:

- Do'stingdan hych narsani ayama.
- Uning gaplariga diqqat bilan quloq tut va aytganlarini bajar.
- Uning sirlarini qalbingda saqla, hych kimga oshkora qilma.
- Do'stingni o'zi yo'qligida uni doimo yaxshi so'zlar bilan esla.
- Odamlardan uni nuqsonlarini yashir, kamchiliklarini faqat o'ziga ayt, toki ularni tuzatsin.
- Undan achchiqlanma, shuningdek, uning gaplaridan nuqson izlama.
- Do'sting bilan ot chopma.
- Unga doimo hurmat bilan munosabatda bo'l.
- Uni xushfe'lligi uchun minnatdorchilik izhor et.
- Do'stingga zinhor – bazinhor xiyonat qilma.
- O'zinga lozim topmagan narsani do'stingga ham lozim ko'rmagin.

Iffat – deb nafsimizni va buzuq ishlardan saqlanmoqlik darkorligiga aytiladi. Insonlarni gunoh (gunoh va isyon) saqlaguvchi, harom – harishdan nafsimizni asraguvchi faqat iffatimizdir. Axloqli insonlar vijdonlarini poklab, tilini yolg'on g'iybat, bo'hton kabi yomon so'zlardan saqlaydilar.

Iffat xotin – qizlar uchun olmosdan qimmat, injudan qadrli ziynat va fazilatdir. Iffatli kishilar hamma vaqt ibratli bo'ladi va iffatini hamma narsadan, hattoki hayotidan ham ustun qo'yadi. Ayniqsa so'zida fe'lida sodiq bo'lib, vijdoniga ters, insoniyatga kelishmagan muomilalardan hazar qiladi. Ular iffat nomusning eng muhim suyanchig'idir deb biladilar va shunga doimo amal qiladilar.

Hayo – deb ishda ham, soʻzda ham, odobda ham rioya qiladigan axloqiy sifatlarga aytiladi. Hayo dilni ravshan qiladigan bir nurdirki, inson har vaqt shu maʼnaviy – axloqiy nurning ziyosiga moʻhtojdir, shariyat buyurmagan, odamlar suymagan ishlarni qilmoq – gʻiybat, hajv, masxara, safsata, soʻkuv kabi odamlarning nafsig, iffatiga tegadigan axloqsiz soʻzlarni soʻzlash – hayosizlikdir. Abu Ali ibn Sino: "Insonni doimo turadurgʻon husn va latofat hayo ila iffatdur. Hayosiz yuz jonsiz jasad kabidur" deb bashorat qilgan edilar.

Bundan tashqari, Suqrot hakim: "Xotunlarning eng goʻzali hayo va iffat pardasiga oʻralganidur" deganlar.

Kiyinish odobi. Ayrim yoshlar yasama, sunʼiy goʻzallik bilan oʻzlarini badbashara qilib qoʻyadilar. Ular haqiqiy goʻzallik yuzning tabiiy latofatida, ichki goʻzalligida, oddiy va xushbichim kiyimda ekanligini unutib qoʻyadilar. Insonning tashqi goʻzalligi kiyim ranglarining bir – biriga mos kelishida, tabiiylik va soddalikda juda yaqqol koʻrinadi. Koʻzga tashlangan holda kishinigi husiniga tabiiy latofat va nafosat beradigan, uning ayrim kamchiliklarini bilintirmay ketadigan ust – bosh kiygani maʼqul. Toʻylarda, turli xil kechalarda, oʻqish va ishda hamda uy sharoitida oʻziga xos kiyinish lozim. Eng muhimi inson tashqi kiyinishi bilan ham ichki goʻzalligi bilan ham namoyon boʻlishi kerak.

Farosat. Insonning farosati, hayotiy harakatlarida, axloqiy sifatlarida, oʻzini tuta billshlarida, did farosat bilan tanlangan kiyim boshida koʻzga tashlanadi. Samimiy oq – koʻngil, oʻziga talabchan, umuman tarbiyalangan kishi koʻrinishida sunʼiylikka yoʻl qoʻymaydigan, oʻziga, oʻzgalarga va atrof muhitga sinchikov boʻlib, oʻziga xos munosabatlar bildirgan kishilar, farosatli kishilar deb qaralgan. Didli, farosatli kishi oʻzida hamisha ana shu qiyofasini saqlab qoladi. Tashqi qiyofaga hamda ichki goʻzallikni oʻz xati – harakatlarida ifoda etib, oʻzining axloqiy sifatlarni doimo mujjasam etishi lozim.

Yaxshi did – avvalo orastalikda namoyon boʻladi. Orastalik birinchi navbatda ansamblning, kiyim bilan poyafzal, bosh kiyimi, sumka, qoʻlqoplar rangi va shakllarining uygʻunligi demakdir. Kishi kiyinishda orastalikning teskari koʻrinishi, didsizlik belgisi sifatida namoyon boʻluvchi bachkanalikdir. Oʻqish va

ish joyida katta sirg'a, serxasham taqinchoqlar taqish, bashang kiyinish, bir – biriga rangi nomunosib kiyimlar kiyish, tor yoki o'ta keng yubka, shim kiyish bachkanalikdir, hamda modani buzish demakdir, agar buni moda deb davvo qilinsa, bu didsizlikdir. Yaxshi did bilan kiyinish kishining o'ziga tanqid bilan qaray olishini ham ifodalaydi. Kishi o'z tabiy nuqsonlarini sezib, uni boshqalarga sezilmaydigan qilib, yaxshi did bilan kiyinishi lozim.

4-§. Musiqiy mashg'ulotlar orqali yosh avlodning axloqiy tarbiyasiga oid repertuarlarni tanlash

O'sib kelayotgan yosh avlodni musiqa madaniyati darslari jarayonida kuy – qo'shiq repertuarini tanlashdagi vazifasi ham juda mas'uliyatlidir. O'rganiladigan qo'shiqlar g'oyaviy badiiy jihatdan yuksak, mazmunan qiziqarli va xilma – xil bo'lishi kerak.

Yosh avlodni musiqa madaniyati darslari jarayonida bolalarga musiqiy axloqiy – estetik tarbiyalash madaniyatini shakllantirishda, o'rganilayotgan kuy – qo'shiqlarimizning naqadar serqirra ekanlini tushuntirish. Hayotda ro'y beradigan hodisalar, jumladan, gullab yashnayotgan jonajon Vatanimizni ta'riflab, kuylanayotgan qo'shiqlarimizni ahamiyati, kuylarimizni jozibaligi atrof – muhitni go'zalligi to'g'risida tasavvur hosil qilishga qaratilgandir.

Repertuar ustida ishlash

Bu tadbir nihoyatda keng tarqalgan badiiy – tarbiyaviy ish shakllaridan biridir. O'quvchilariga o'rganilayotgan asarning g'oyaviy – badiiy mazmunini chuqurroq tushunishga va uning uslubini ilg'ab olishga yordam beradi.

Unda asarning mazmuni, u yaratilgan davr va uning muallifi haqidagi asosiy ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, repertuar bilan bog'liq bo'lgan so'hatlarda axloq-odob, san'at, musiqa va ijrochilik tarixiga oid ayrim muammolar ham yoritilishi mumkin.

1996 – yildan joriy etilgan «O'zbekiston Vatanim manim», «O'zbekiston qo'shiq bayrami», «Alla», «Folklor» va bir qancha musiqiy ko'rik – tanlovlarini tashkil etilishi, yosh avlodni madaniy – ma'rifiy, musiqiy sifatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) hazratlari aytganlaridek «Vatanni sevmoq iymondandir» (hadisdan). Ona – Vatanni sevishga, uni asrashga va kuy – qo'shiqlar orqali bu maskanni yanada go'zalroq qilishga, ardoqlashga har bir inson harakat qilishi zarur.

Masalan: O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning «O'zbekiston madhiyasi», «O'zbekiston Vatanim manim», Hamid Olimjonning «Vodiylarni

yayov kezganda», Erkin Vohidovning «O'zbekim», Akmal Po'latning «Go'zal O'zbekistonsan», «Xorazm lazgisi», «Andijon polkasi» va shunga o'xshash kuy – qo'shiqlardan ko'plab misollar keltirish mumkin.

Bundan tashqari Sharof Rashidovning «Olamda gullar yashar», Hamid Olimjonning «O'rik gullaganda», Pulat Mo'minning «Namanganning olmasi» va boshqalar. Bolalarga yengil bo'lishi uchun ular sevib kuylayotgan qo'shiqlarimizdan ayrimlari: «Oq qayin», «Archa qo'shig'i», «Paxtaoy», «Oqterakmi – ko'k terak», «Gilos», «Kishmishim», «Anori dona – dona», «Kunga boqar», «Olmacha anoringga balli», «Olmani otdim» va shunga o'xshash bir talay kuy – qo'shiqlardan ko'plab misollar keltirish mumkin.

Masalan: «G'ildiragim», «Samolyot», «Varragim», «Koptokcham», «Mashinam», «Qayiqcham», «Kitobim», «Ey qalam», «Zangori kema» va boshqalar.

Cholg'u asboblari to'g'risida ham bir nechta misollar keltirish mumkin: «Dutorim», «Yangra doira jarangla», «Tanbur», «Dumbiram», «Nay sehri», «Setor», «Rubobim tori ikkidur» kabi kuy – qo'shiqlarni ko'plab keltirish mumkin.

Masalan: «Oh atir gul», «Nastarin», «Rayhon», «Binafsha», «Boy chechak», «Gulg'uncha», «Qizg'aldog'im», «Lola» va shunga o'xshash bir qancha kuy – qo'shiqlardan ko'plab misollar keltirib, ularni musiqiy mashg'ulotlarda qo'llash mumkin.

Masalan: "Mayda", "Yozi", "Yer g'ichoq" va hokazolarni ko'rish mumkin.

Yuqoridagi misolda kuzatilayotganidek, ishq hayvonini sifatlovchi misralar bilan bir qatorda lirik mazmunli to'rtliklar, odatda sigirlar, quylar, echkilarni sog'ayotganda ijro etiladigan, ya'ni aytiladigan «Xo'sh – xo'sh», "To'ray – to'ray", "chiray – chiray", deb nomlanuvchi afsunli erkalash qo'shiqlari uchun ham xarakterlidir.

Bundan tashqari bayram ertaliklarida hayvonot olami haqidagi kuy – qo'shiqlarni ham repertuarga kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

«Qarg'alar uchsa qaraylik», «Bulbulim», «Kakku», «Saman ot», «Quyuncha», «Sayra bedana», «Quvnoq g'ozlar», «Uloqcham», «Ayiqlik polvon», «Kakligim», «Erka serka – sirkda», «Nortuya», «Toychoq'im», «Bolarilar», «Tulkivoy», «Mushukcham», «Jayron nega ko'zlaringda yosh» va shunga o'xshash kuy – qo'shiqlardan ko'plab misollar keltirish mumkin.

Tabiat to'g'risida quyidagi qo'shiqlarni misol keltirish mumkin: «So'lim bahor», «Chaman ichra», «Xazon yaprog'i», «Bog'imizga marhamat», «Momaqaldiroq», «Sabo», «Ko'klam», «Shamol», «Shabnam», «Kuz», «Oppoq qor», «Bahor vals», «Cho'li Iroq», «Yangi yilim, yaxshi yilim», «Oftob chiqdi olamga» va boshqalari shular jumlasidandir.

Musiqiy tarbiya jarayonida kuy – qo'shiq mavzusini tanlash va ijrochilik masuliyatini shakllantirish degan bobda biz – yoshlarga musiqiy mashg'ulotlar orqali tabiat va jamiyatni bir – biriga mutanosibligini tushuntirishimiz nazarda tutiladi.

Jamoa bo'lib ko'rilgan teatr, tinglangan konsertlarni o'zaro muxokama va tahlil qilish xor to'garagi a'zolari saviyasining o'sishiga katta yordam beradi.

Ma'lumki, Vatanimizda ko'zga ko'ringan bolalar xor to'garaklari o'zining yaxshi tanlangan rang – barang repertuari, yuksak ijrochilik mahorati bilan o'z muxlislarini xursand qilib kelmoqda. Bularga Toshkent Davlat Konservatoriyasining o'qituvchisi M; Subayeva rahbarligidagi «Bahor ovozlari» nomli Toshkent shahar 146 maktab xorini aytib o'tish joizdir.

Ayniqsa, Shermet Yormatov rahbarligidagi, O'zbekiston radiosi qoshidagi bolalar «Bulbulcha» xori va yana bir necha shu kabi ajoyib xor to'garaklari misol bo'la oladi. Shunday xor to'garaklari jamoa va a'zolari bilan uchrashuvlar tashkil qilish yoki ular bilan yozishmalar orqali mustahkam aloqa o'rnatib, o'zaro tajriba almashish ishlari xor to'garagi faoliyatining har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyat kashf etadi.

Xulosa

Mustaqil Respublikamiz milliy istiqloliy o'zgarishlarni boshidan kechirayotgan hozirgi davrda yoshlarning oldida ulkan vazifalar qo'yadi. Ayniksa, milliy mafkura, milliy istiqlool g'oyasi, manaviy shakllanish, madaniy meros va umuniinsoniy qadriyatlar sohasida kuchli izlanishlar zarurdir. O'zgarish va yangilanish ma'naviy barkamolikka erishish uchun avvalo axloqiy, ma'naviy va nafosat tarbiyalarini rivojlantirish eng dolzarb masala hisoblanadi.

Xalk ta'limi tizimidagi, musiqa ta'lim – tarbiyasining mazmunini qayta tiklash jarayonida milliy musiqamiz tarixini, madaniy merosimizni, boy an'analarimizni har tomonlama o'rganib yosh avlodni ma'naviy, estetik va axloqiy fazilatlarini tarbiyalab shakllantirish vazifasini musiqa rahbarini zimmasiga muhim vazifa qilib yuklaydi.

Demak, rahbar musiqa san'atining nazariy va amaliy sohalaridan bilim va malakalarga ega bo'lish bilan birga milliy musiqamiz, madaniyatimiz va ma'naviyatimiz haqida ham puxta bilimga ega bo'lishi kerak.

Hozirgi davrda boshlang'ich sinf musiqa darslarida o'quvchilarni axloqiy sifatlarini shakllantirish ularning ma'naviy dunyosini boyitish siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan jarayon bo'lib, bu borada qilinishi kerak bo'lgan bir qancha muammolar mavjud.

O'quvchilarning axloqiy sifatlarini oshirish ishlari o'quvchilarning aynan shu davrida (9–10 yoshlaridan 14–16 yoshli) hayotga bo'lgan munosobatlari shakllanayotgan, dunyoqarashlari o'zgarayotgan, atrof muhitga, odamlarga bo'lgan munosobatlari shakllanayotgan bo'ladi, shuning uchun ham ushbu davrda musiqa o'qituvchilardan katta mas'uliyat talab qilinadi.

Ayniqsa musiqa darslari o'quvchilarning axloqiy sifatlarini oshirishda katta axmiyat kasb etadi. Bu esa sinf o'quvchilarni axloqiy sifatlarini shakllantirish imkoniyatlarini oshiradikim, yoshlikda olgan to'g'ri tarbiya insonning bir umrlik yo'ldoshi bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib shuni qayd etish kerakki, musiqa darsining tuzilishi barqaror tematik sxemada emas, balki tematik plandagi asararni o'zlashtirish uchun musiqa

faoliyatining qaysi turi bilan tugatilsa ham bolalarni musiqaga va dars mazmuniga ko'proq qiziqтира olish va pedagogik maqsadga samaraliroq erishish mumkinligi muhimdir. Bunda darsning ham tarkibiy, ham mazmun jihatdan mantiqiy bir butunligiga erishiladi. Demak, darsda qo'llaniladigan har bir musiqaviy faoliyat turi darsning ajralmas mantiqiy bo'lagi bo'lib, aniq pedagogik maqsadga qaratilmog'i lozim.

Shunday qilib, darsda bir necha pedagogik maqsad, belgilanadiki, ularning har biri yoki bir necha musiqaviy faoliyat turlari orqali amalga oshiriladi. Ular quyidagicha bo'lishi mumkin:

- musiqaviy qobiliyatni rivojlantirish;
- musiqani idrok etish malakalarini o'stirish;
- kuylash malakalarini o'stirish;
- musiqaga ritmik jo'r bo'lish, unga muvofiq harakatlar qilish bilan ijrochilik qobiliyatlarini o'stirish;

Binobarin boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy – axloqiy sifatlarini shakllantirmasdan turib, ularni psixologiyasi va tafakkurida, kayfiyatida o'zgarish qilmasdan turib, mamlakatni rivojlantirish qiyin kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz.-T.: «O'zbekiston», 2000.-112 b
2. Karimov I. A «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda». Toshkent.; 1999
3. Karimov I.A «Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodini va buyuk kelajakka ishonchdir» Toshkent.; 2000
4. Karimov I.A Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3 tom, Toshkent "O'zbekiston", 1996
5. Azizxo'jayeva N. «Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat» Toshkent.; «O'qituvchi» 2006
6. Akbarov. I. " Musiqa lug'ati " Toshkent – « O'qituvchi », 1987
7. Apraksina O.A. "Metodika muzikalnogo vospitaniya v shkole" M., 1980 islohatlar yo'lidir. Toshkent,. "O'zbekiston", 1996
8. Vafojev O. "Ma'naviyat – taraqqiyot omili", "Istiqlol va ma'naviyat", Muloqot jurnali, 1996
9. Gudneva Ye.A. Vasileva A. «Maktabda musiqa tarbiyasi » T .,1973
10. Zunnunov S «Donishmandlar odob – axloq to'g'risida» Toshkent., 1999
11. Ishmuxammedov R.J. «Innavasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari» TDPU, T.. 2004
12. Mavlyanova va boshqalar. «Pedagogika», Toshkent ., «O'qituvchi», 2001
13. Omonullayev D. Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan leksiyalar kursi. Toshkent., 1990
14. Omonullayev D «Umumta'lim maktablarida musiqa dasturlari. Toshkent.,O'qituvchi 1992
15. Omonullayeva X. Nurmatov, K. Mamirov va boshqalar “Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim standarti va o'quv dasturi ” T., 1997
15. Ta'lim to'g'risidagi qonun (Vazirlar mahkamasi) Toshkent ; 1997
16. O'zbekiston Milliy Ensklopediyasi 1 – 10 jildlar «O'zME» T., 2006
17. Qodirov G'.Q «Musiqa psixologiyasi» Toshkent.; Musiqa – 2007
18. Hasanboyev J, Turopova M, Hasanboyeva O "Ma'naviy axloqiy tarbiya asoslari". Metodik qo'llanma., G'.G'ulom, «San'at» Toshkent 2000
19. Sharipova G. “Musiqa tarbiyasi metodikasi fanidan dastur” T., 1997
20. Mansurov A, Karimova D “Umumiy o'rta ta'lim maktablarining uchinchi sinf musiqa darsi uchun metodik tavsiyanoma” Toshkent 1997

Mundarija

K i r i s h	5
1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni ma'naviy – axloqiy dunyoqarashini shakllantirish yo'llari	9
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy va ma'naviy madaniyatini shakllantirishda musiqa tarbiyasining tutgan o'rni	13
3. Boshlang'ich sinf musiqa darslarida o'quvchi yoshlarni odob va axloqiy sifatlarini shakllantirishning forma va mazmuni	18
4. Musiqiy mashg'ulotlar orqali yosh avlodning axloqiy tarbiyasiga oid repertuarlarni tanlash	27
X u l o s a	30
Fodalanilgan adabiyotlar	32